

O‘ZBEKCHA ANTROPONIMLARNING XITOIY TILIDA IFODALANISHI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-21-44-48>

Raxmatova O.X

1-bosqich magistratura talabasi

Ilmiy rahbar: PhD, o‘qituvchi **Shamsiyeva Sh.Q**

Annotatsiya. *Antroponimlar inson hayotida katta ahamiyatga ega. Ularda xalqning dunyoqarashi va madaniyati aks etgan bo‘ladi. Ismlar millat ruhini ko‘rsatib turuvchi ma‘lum xususiyatlar jamlanmasidir. Mazkur maqolada o‘zbekcha 21 ta antroponimlarning xitoy tilida, ierogliflarda qanday ifodalanishi hamda sabablari xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *antroponim, onomastika, islom dini, fonetik va semantik ifodalanish*

Annotation. *Anthroponyms are of great importance in human life. They reflect the worldview and culture of the people. Names are a set of specific characteristics that reflect the spirit of a nation. This article discusses how 21 Uzbek anthroponyms are expressed in Chinese, in hieroglyphs, and why.*

Keywords: *anthroponym, onomastics, Islam, phonetic and semantic expression.*

“Antroponim ham onomastikaning huddi toponim yoki zoonim kabi lisoniy birligi bo‘lib, u o‘z ichiga aniq birliklarni oladi. Masalan, N.T.Podolskaya antroponim termini haqida fikr yuritar ekan, uning tarkibiga ism, otchestvo, familiya, laqab taxallus, kripgonim(laqab, ism, nom), andronim, ginekonim, patronim kirishini qayd qilgan.”¹ Har bir tilning antroponimik sistemasi shu til vakillarining dunyoqarashini, ruhiyatini, muayyan mintaq va dinga mansubligini, xarakterini ko‘rsatib turuvchi asosiy material hisoblanadi. Hozirgi o‘zbek antroponimikasi tarixiy jihatdan olib qaralsa, milliy va umumturkiy an‘analar, islom dini urf- odatlari, rus-yevropa shakllari kabi lingvomadaniy an‘analar ta‘sirida tinmasdan o‘zgarib rivojlanib bormoqda. Islom dini asrlar davomida o‘zbek xaqining turmush tarzi, ilm-fan, madaniyati va qadriyatlariga ta‘sir o‘tkazdi. Garchi, o‘zbek ismlarining tarkibida fors-tojikcha, hindcha, yahudiycha, yunoncha, mo‘g‘ulcha va ruscha ismlarni uchratishimiz mumkin bo‘lsada, ko‘pchilik qismini arabcha-diniy mazmunga ega ismlar tashkil qiladi. Fikrimizning isbotini kundalik hayotimizda uchrab turgan ismlardan ham ko‘rishimiz mumkin.

¹ «ЎЗБЕК ТИЛИ АНТРОПОНИМИКАСИ» Э.А.Бегматов, Тошкент-2013, 11-б

O‘zbek tilida onomastikasi mavzusida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ulardan E.A.Begmatovning o‘zbek antroponimikasi, T.Nafasovning Qashqadaryo viloyati toponimikasi, S.Qorayevning tarixiy nomlarni o‘rganish mazkur ilmiy sohada poydevor vazifasini o‘taydi. Xitoy antroponimiyasi haqida esa, rus tilshunoslari E.A.Hamayeva va V.V.Dashevalar ilmiy izlanishlar olib borgan. Demak, bizning mazkur masala bo‘yicha vazifamiz o‘zbek tilida mavjud antroponimlarni chuqurroq o‘rganib, tilimizda paydo bo‘layotgan yangi ismlarni tahlil qilish, mavjud ismlarni o‘rganayotgan chet tilimizda qanday ifodalanishini tadqiq qilishdan iboratdir.

Farzand dunyoga kelgach, har qanday din, har qanday millatga mansub otananing oldidagi eng birinchi vazifalaridan biri go‘dakka to‘g‘ri ism tanlash hisoblanadi. “har bir musulmon ota-ona bu muhim ishga alohida e‘tibor ila yondashmog‘i lozimdir. O‘zi bilmasa, biladiganlardan so‘rab, o‘rganib, o‘g‘il bo‘lsin, qiz bo‘lsin, bolasiga go‘zal ism qo‘yishi kerak. Qo‘ygan ismida orzu-umid, yaxshi niyat, go‘zallik, xayr-baraka o‘z ifodasini topsin. Farzand katta bo‘lib, oq-qorani taniganida o‘z ismidan uyaladigan bo‘lmasin. Balki ismi unga ziynat bo‘lib tursin.”²

Xitoy tilida boshqa tillardagi ismlar ikki xil yo‘l orqali ifodalanishi mumkin. Birinchidan, fonetik jihatdan asliga o‘xshash holda mavjud bo‘g‘inlar yordamida ifodalansa, ikkinchidan, semantik ya‘ni aslida qanday ma‘no anglatasa, o‘sha ma‘no xitoy tilidagi so‘z bilan ifodalanadi. Shu sababdan ham, ko‘pchilik chet elliklarda ikkita ism bo‘ladi. Masalan, “*mening o‘zbekcha ismim ...*”, “*xitoycha ismim esa...*” degan jumlaning ko‘p uchratishimiz mumkin. Bunday hollarda, xitoycha ism asl ismning semantik ma‘nosini ham anglatishi mumkin. Birgina, *Go‘zal* qizlar ismi fonetik jihatdan 古扎里 Gǔ zhā lǐ deb yoki 美丽 Měilì semantik jihatdan *chiroyli*, *go‘zal* kabi ma‘nolarni anglatuvchi so‘z bilan ifodalanishi ham mumkin. Qaysi usuldan foydalanish esa, qulaylik jihatidan tanlanadi.

Mazkur maqolamizda, o‘zbek tilidagi ko‘p uchraydigan ismlar xitoy tilida fonetik jihatdan qanday ifodalanishini bir nechta misollar doirasida ko‘rib chiqamiz:

Ism	Ma‘nosi	Talaffuzi	Ieroglifda yozilishi
Abdulla	<i>ar. Allohning quli, bandasi</i>	Ā bo dù lā	阿卜杜拉
Abbos	<i>ar. qovog‘i soliq, badjahl, beshavqat yoki dovyurak</i>	Ā bā sī	阿巴斯
Ahmad	<i>ar. Allohga ko‘p hamdu sanolar</i>	Āhèràidé	阿赫麦德

² «БАХТИЁР ОИЛА» Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф, Тошкент-2018, 292-б

	aytuvchi kishi, maqtovg'a, olqishga sazovor kishi		
Amir	ar. hokim, hukmron, yo‘lboshchi	Ā mǐ'ěr	阿米尔
Ali	ar. eng yuksak, eng ulug‘, yuqori martabali	Ālǐ	阿里
Farida	ar. yakka, yagona, tengsiz, bebaho	Fǎ lǐdá	法丽达
Fotima	ar. fatiat—ko‘krakdan ajratilgan	Fǎ dì mǎ	法蒂玛
Ibrohim	qad. yah. “Bibliya”dagi Abraam ismining arabcha shakli bo‘lib, “xalqlar otasi” ma’nosini anglatadi	Yì bo lǎxìn	易卜拉辛
Ilyos	qad. yah. “Mening tangrim Eliyaxin(Yahyo), Allohning kuchi, kishilar qadrllovchi, e’zozlovchi odam	Yī liàisi	伊莉艾丝
Ismoil	qad. yah. “Xudo eshitdi” yoki Allohdan so‘rab olingan, Alloh tuhva qilgan bola	Yī sīmǎyī	伊斯马伊
Hasan	ar. yaxshi, tuzuk; chiroyli, sohibjamol	Hā sāng	哈桑
Karim	ar. karamli, saxiy, sahovatli	Kǎ lǐ mǔ	卡利姆
Malika	ar. qirolicha, podshohning avlodiga mansub ayol; ulug‘, martabali ayol	Mǎlì kǎ	玛丽卡
Majid	ar. ne‘mati va ehsoni bepoyon, muruvvatli; atoqli, dongdor	Mǎjídé	马吉德
Muhammad	ar. maqtovg'a, olqishlarga sazovor	Mùhǎnmòdé	穆罕默德
Mustafo	ar. tanlangan, saralab olingan	Mù sī tǎ fǎ	穆斯塔法
Nodir	ar. siyrak, kam uchraydigan, tengsiz yoki bebaho, qimmatli	Nà dí ěr	纳蒂尔
Naima	ar. baxtli, iqboli baland qiz	Nàiyǐmǎ	娜伊玛
Oysha	ar. yashovchi, barhayot, joni toshdek mustahkam qiz	Àiyī shā	艾伊莎
Jamila	ar. go‘zal, sohibjamol, maftunkor qiz	Jiǎ mǐ lā	贾米拉
Samira	ar. suhbatdosh dilkash qiz	Sà mǐ lā	萨米拉

Zahro	ar. yorqin, ravshan, oq yuzli, nurli, intiluvchi, xavas qiluvchi	Zuǒ lā	佐拉
-------	--	--------	----

Yuqoridagi misollarni tahlil qiladigan bo‘lsak, 1) “yi, i” kabi bo‘g‘inlarni xitoy tilida antroponimlarni yozilishida 伊 yi ieroglifidan foydalanilganini ko‘rishimiz mumkin. Mazkur ieroglif asosan, islom dini bilan bog‘liq so‘zlarda qo‘llaniladi. 2) 马 va 玛 ierogliflari “ma” tovushini beradi. Biroq, ularning birinchisi erkaklar ismidagi, ikkinchisi esa ayollar ismidagi “ma” bo‘g‘inini ifodalaganini yuqoridagi misollarda ham isbotini topgan. Ismlarimizda -d tovushini ifodalab kelgan 德 de ieroglifi ko‘p hollarda ahloqiy ma’noni anglatuvchi so‘zlarda qo‘llaniladi. Nima sababdan atoqli otlar asli kabi talaffuz qilinmaydi degan savolga, Xitoy tili o‘zida 400 dan oshiq bo‘g‘inlar bilangina so‘zlarni hosil qila oladi. Shu sababdan ham ko‘pchilik chet tillaridagi atoqli otlarni, imkoni boricha, qisqaroq ifodalashga harakat qilinadi. Biz xitoy tilida qanday yozilishini tahlil qilgan atoqli otlarning ko‘pchilik qismi islomiy ismlar bo‘lganligi, sababli, ularni hurmat qilgan holda asl manbaasiga yaqinroq fonetik ifodalanganligini ko‘ramiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, hozirgi davrda tilni lingvomadaniy, sotsiolingvistik jihatdan o‘rganish dolzarb masala bo‘lib kelmoqda. Maqolamiz har qanday sohada o‘zbek antroponimlarini xitoy tilida ifodalash masalasi bo‘yicha xizmat qilishi maqsadida yozilgan. Ba’zi hollarda shaxs otlarini qanday aytish masalasi namoyon bo‘lganda, biz izohlagan ismlar kerakli hollarda yordam beradi. Bundan tashqari, ikkita madaniyatlar, tillari boshqa boshqa bo‘lgan xalqlarning lingvomadaniy jihatdan turfa xilliklarini qisman solishtirish imkonini ham beradi. Insonga tug‘ilgandan so‘ng beriladigan ism avvalambor, millatning orzu-umidlarini, dunyoqarashini, yashash sharoiti kabi xususiyatlarni o‘zida aks etadi. Ba’zi hollarda esa ismlar inson taqdiriga ham ta’sir qilishi mumkin degan fikrlarga ham duch kelishimiz mumkin ekan. Hozirgi globallashtirilgan davrda bitta ismni turli shakllari vujudga kelmoqda. Bunga esa, madaniyatlararo, tillararo yuzaga kelayotgan aloqalrni sabab qilib keltirishimiz mumkin. Inson yashayotgan ekan mavjud ismlarning ba’zilari iste’moldan chiqib ketib, o‘z ining o‘rnini yangi vujudga kelayotgan ismlarga bo‘shatib berishi tabiiy holdir. Ularni tadqiq qilish esa yana yangi sohalarni paydo qiladi.

REFERENCES

1. Э.А.Бегматов «ЎЗБЕК ТИЛИ АНТРОПОНИМИКАСИ», Тошкент-2013, 11-6

2. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф «БАХТИЁР ОИЛА» , Тошкент-2018, 292-б
3. Шамсиева, Ш. К. (2020). КЕКСАЛИК БИЛАН БОҒЛИҚ ЭВФЕМИЗМЛАРНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ТАДҚИҚИ (ХИТОЙ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ МИСОЛИДА). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(3).
4. Назарова, С. А. (2021). МЕЖКУЛЬТУРНАЯ КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ: УРОВЕНЬ СФОРМИРОВАННОСТИ И РЕЗУЛЬТАТЫ КОНСТАТИРУЮЩЕГО СРЕЗА СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ (КИТАЙСКИЙ ЯЗЫК). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 147-155.
5. Shozamonov, S. I., Nazarova, S. A., & Djuraev, B. B. (2021). Problems of Development of the Uzbek Language in Current Society. *Open Journal of Modern Linguistics*, 11(4), 613-620.
6. Мавлянова, У.Х. СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ «ЧИСЛИТЕЛЬНОЕ» В КАТЕГОРИИ ЧАСТЕЙ РЕЧИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ // ORIENSS. 2021. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/suschnost-ponyatiya-chislitelnoe-v-kategorii-chastey-rechi-v-sovremennom-kitayskom-yazyke> (дата обращения: 30.03.2022).
7. Мустафаева, Самиди ХИТОЙ МИН ДАВРИ ЛЕКСИКАСИ ТАДҚИҚИДА АСОСИЙ МАСАЛА ВА МУАММОЛАР ХУСУСИДА // ORIENSS. 2021. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/hitoy-min-davri-leksikasi-tad-i-ida-asosiy-masala-va-muammolar-hususida> (дата обращения: 30.03.2022).
8. Юсупова, Хилола Саъдулла Қизи ҲОЗИРГИ ХИТОЙ ТИЛИДА ОТ ТУРКУМИГА ОИД СЎЗЛАРНИНГ СЎЗ ҚЎШИШ УСУЛИНИНГ БОҒЛОВЧИ МОДЕЛИ АСОСИДА ЯСАЛИШ ХУСУСИЯТЛАРИ // ORIENSS. 2021. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ozirgi-hitoy-tilida-ot-turkumiga-oid-s-zlarning-s-z-shish-usulining-bo-lovchi-modeli-asosida-yasalish-hususiyatlari> (дата обращения: 30.03.2022).
9. Артикова, З. З. (2021). LEXICO FEATURES OF THE PIECE COUNTING WORD 把ВЎ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (5-8), 113-118.
10. Рахматуллаева, Д. М. (2021). 浅谈词教学题 *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 344-348.